



TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK VAZIFALARNI HAL ETISH ORQALI FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Qodirova Qunduz Husin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda ta'lim jarayonida pedagogik vazifalarni samarali tashkil etish orqali ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Pedagogik vazifalarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinib, "Aqliy hujum", "Klaster" kabi interfaol metodlarning ta'lim samaradorligiga ta'siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari pedagogik vazifalarni maqsadli qo'llash ta'lim sifati va ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: pedagogik vazifa, fikrlash qobiliyati, ta'lim jarayoni, tanqidiy fikrlash, interfaol metodlar.

Kirish: Mazkur tezis ta'lim jarayonida pedagogik vazifalar orqali ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasiga bag'ishlangan. Zamonaviy ta'lim tizimida asosiy e'tibor bilim berish bilan birga, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni tahlil qilish va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilmoqda. Shu jihatdan pedagogik vazifalar ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bugungi kunda ta'lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda o'quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik vazifalarni interfaol metodlar asosida tashkil etish ta'lim oluvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va metodlari;

Maqsad – pedagogik vazifalar orqali fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samarali usullarini tahlil qilish.

Vazifalar: pedagogik vazifalarning mohiyatini ochib berish, interfaol metodlarning ahamiyatini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodlar: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, qiyosiy tahlil va umumlashtirish.

Asosiy natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagogik vazifalarni ta'lim jarayonida maqsadli qo'llash ta'lim oluvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Darslarda "Aqliy hujum", "Klaster", munozara va muammoli vaziyatlardan foydalanish o'quvchilarning



darsdagi faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi va amaliy qo'llash kompetensiyasi rivojlanadi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati pedagogik vazifalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgani bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa tezisda tavsiya etilgan metod va yondashuvlardan umumiy o'rta, professional hamda oliy ta'lim muassasalarida dars samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, pedagogik vazifalarni zamonaviy interfaol metodlar asosida tashkil etish ta'lim oluvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bunday yondashuv ta'lim sifatini oshiradi, o'quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltiradi hamda ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Avliyakov N.X. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
2. 2.Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2006.
3. 3.Ishmuhammedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2008.
4. 4.Muslimov N.A. Kasb ta'limi pedagogikasi. Toshkent: Fan, 2007.
5. 5.Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003.
6. 6.Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006.
7. 7. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 2004.